

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda  
ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(2022- yil yanvar–mart, dastlabki ma'lumot)

2022- yil yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) **2925,0** ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **11,0 %** ga oshdi.

**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to'lash  
tarzida hisoblangan daromad**

(2022- yil yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Korxona va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad, mlrd.so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Jami:</b>	<b>3 069</b>	<b>158 390</b>	<b>1 389,9</b>	<b>2 925,0</b>
shu jumladan:				
Sanoat	44	14 581	185,0	4 230,1
Qurilish	11	2 140	16,6	2 584,6
Savdo	17	1 142	8,1	2 352,0
Tashish va saqlash	11	7 417	86,6	3 891,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	113	0,95	2 805,8
Axborot va aloqa	38	1 151	11,6	3 357,0
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	79	2 888	58,9	6 800,3
Ta'lim	1 430	76 789	566,1	2 413,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	93	26 285	201,8	2 558,9
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	79	2 626	17,7	2 241,9
Boshqa faoliyat turlari	1 261	23 258	221,2	3 170,4



## Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022-yil yanvar-mart, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Maktabgacha ta'lim sohasi



1 419,4 ming so'm

Umumiy o'rta ta'lim sohasi



2 572,5 ming so'm

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



2 413,9 ming so'm

O'rta maxsus kasbhunar ta'lim sohasi



2 159,1 ming so'm

Oliy ta'lim sohasi



5 141,2 ming so'm

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 413,9** ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **11,9 %** ga oshgan.




## Ta'lif sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022-yil yanvar-mart, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Ta'lif sohasi bo'yicha qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri - **133,6 %**, Kegeyli tumani - **106,3**, Ellikqal'a tumani - **104,3 %** va Xo'jayli tumani - **104,3 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, 13 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Qorao'zak tumani - **78,6 %**, Bo'zatov tumani - **78,0 %**, Taxtako'pir tumani - **77,7 %** hamda Mo'ynoq tumani - **76,9 %** hissasiga to'g'ri kelgan.


### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda





Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik  
nominal hisoblangan ish haqi

(2022-yil yanvar-mart, kichik tadbirkorlik  
subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Sanoat sohasida **44** ta korxonada **14 581** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **9,2 %** ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **185,0** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi **13,3 %**ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4 230,1** ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **6,4 %** ga o'sdi.


Sanoat sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **7 608,1** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **79,9 %** ga yuqori), Taxiatosh tumanida **5 385,8** ming so'mni (**127,3 %**) va Nukus tumanida **4 319,5** ming so'mni (**102,1 %**) tashkil etgan bo'lsa, Chimboy tumanida **1 435,6** ming so'mni (**33,9 %**), Bo'zatov tumanida **1 550,0** ming so'mni (**36,6 %**), Ellikqal'a tumanida **1 567,0** ming so'mni (**37,0 %**) hamda To'rtko'l tumanida **1 647,6** ming so'mni (**38,9 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi  
bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022-yil yanvar-mart, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



**O'rtacha oylik ish haqi,  
ming so'mda**




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi respublikaning 11 ta tumanida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumani – **79,0 %**, Shumanay tumani – **88,7 %**, Taxtako'pir tumani – **89,6 %** hamda Taxiatsosh tumani – **90,2 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 558,9** ming so'mni tashkil etib, bunda respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Chimboy tumani - **118,5 %**, Beruniy tumani - **107,6 %**, Qonliko'l tumani - **104,2 %** hamda Kegeyli tumani - **104,2 %** hissasiga to'g'ri kelmoqda


**O'rtacha oylik ish haqi,  
ming so'mda**





## Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

*(2022- yil yanvar-mart, kichik tadbirkorlik  
subyektlaridan tashqari, ming so'm)*




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida **79** ta muassasada **2 888** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,8 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **58,9** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,2% ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **6 800,3** ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **28,8 %**ga o'sdi.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **7 758,2** ming so'mni (Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **114,1%**), Amudaryo tumanida **7 654,0** ming so'mni (**112,6%**) va Xo'jayli tumanida **7 334,1** ming so'mni (**107,8%**) tashkil etgan bo'lsa, Qorao'zak tumanida **3 575,1** ming so'mni (**52,6%**), Shumanay tumanida **5 005,8** ming so'mni (**73,6%**) va Taxtako'pir tumanida **5 238,8** ming so'mni (**77,0%**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'limoqda.



## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

*(2022- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik  
tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, % da)*




Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida **28,8** % ga, axborot va aloqada **24,8** % ga, ta'limda **11,9** % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **10,6** % ga va sanoat sohasida **6,2** % ga o'sgan bo'lsa, aksincha savdoda **7,7** % ga, qurilishda **5,9** % ga hamda tashish va saqlash sohasida **5,4** % ga kamayganligini kuzatish mumkin.



## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

*(2022- yil yanvar-mart, respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)*



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **3 857,0** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **131,9 %**), Qo'ng'iroq tumanida **3 252,8** ming so'mni (**111,2 %**) va Taxiatosh tumanida **2 991,8** ming so'mni (**102,3 %**) tashkil etgan bo'lsa, Bo'zatov tumanida **2 065,7** ming so'mni (**70,6 %**), Taxtako'pir tumanida **2 128,7** ming so'mni (**72,8 %**) va Qorao'zak tumanida **2 131,7** ming so'mni (**72,9 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'imoda.



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik  
tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2 635,0</b>	<b>2 925,0</b>	<b>111,0</b>
Nukus shahri	3 360,8	3 857,0	114,8
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	2 005,9	2 198,2	109,6
Beruniy	2 001,6	2 284,8	114,1
Bo'zatov	1 769,3	2 065,7	116,7
Qorao'zak	1 929,3	2 131,7	110,5
Kegeyli	2 274,3	2 589,7	113,9
Qo'ng'iroq	3 202,6	3 252,8	101,6
Qonliko'l	2 029,6	2 398,5	118,2
Mo'ynoq	1 947,3	2 187,5	112,3
Nukus	2 274,6	2 764,0	121,5
Taxiatosh	2 664,7	2 991,8	112,3
Taxtako'pir	2 138,1	2 128,7	99,6
To'rtko'l	2 187,2	2 379,8	108,8
Xo'jayli	2 404,0	2 592,1	107,8
Chimboy	2 078,4	2 482,2	119,4
Shumanay	2 121,3	2 264,5	106,8
Ellikqal'a	2 254,9	2 425,7	107,6



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariiga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariiga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.08.2021- yildagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-6279-sonli Farmoniga muvofiq, 2021- yilning 1- sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 822 000 so'mni tashkil etadi.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi  
statistika boshqarmasining  
Demografiya va mehnat statistikasi  
bo'limi  
Tel: (61) 224-92-17 (61) 222-76-57*